



UDK: 930.85

Muhabbat XAMIDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori
E-mail: mukhabbatsamandarovna@gmail.ru

O'zFA akademigi, t.f.d D.Y.Yusupova taqrizi asosida

THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE CAMPUS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the history of the formation of the campus of the National University of Uzbekistan, its architectural development, and the significance of the university as a scientific and spiritual center. It also covers the history of the construction of the university campus buildings, their stages of development in different periods, construction style, architectural decoration, and modern condition.

Keywords: National University of Uzbekistan, history of the university campus buildings, architecture of the main building, higher educational institution, scientific center.

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КАМПУСА НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье анализируется история формирования кампуса Национального университета Узбекистана, его архитектурное развитие, значение университета как научно-духовного центра. Также в ней освещается история строительства зданий университетского кампуса, этапы их развития в различные периоды, стиль строительства, архитектурное оформление и современное состояние.

Ключевые слова: Национальный университет Узбекистана, история зданий университетского кампуса, архитектура главного здания, высшее учебное заведение, научный центр.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI KAMPUSINING VUJUDGA KELISH TARIXI

Annotasiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Milliy universiteti kampusining shakllanish tarixi, uning me'moriy taraqqiyoti, universitetning ilmiy-ma'naviy markaz sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, unda universitet kampusi binolarining qurilish tarixi, ularning turli davrlardagi rivojlanish bosqichlari, qurilish uslubi, me'moriy bezaklari va zamonaviy ahvoli ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Milliy universiteti, universitet kampusi binolari tarixi, bosh bino arxitekturasi, oliy ta'lim muassasasi, ilm-fan markazi.

Kirish. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (avvalgi Turkiston xalq universiteti, keyinchalik O'rta Osiyo Davlat universiteti va Toshkent Davlat universiteti) – O'rta Osiyo mintaqasida tashkil etilgan dastlabki va yirik oliy ta'lim muassasasi bo'lib, universitet kampusi (OTM shaharchasi) binolari ham tarixiy, ham me'moriy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Ular o'z davridagi madaniy va ilmiy muhit bilan chambarchas bog'liq holda barpo etilgan bo'lib sovet davri arxitekturasining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolada O'zbekiston Milliy universiteti kampusi binolarining qurilish tarixi va uning yirik ilmiy markazga aylanishiga doir masalalar va umuman, sovet davri arxitekturasining o'ziga xos xususiyatlari tarixi yoritilgan bir qator ilmiy adabiyotlar hamda internet saytlarida e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar va boshqa turdagi ilmiy ishlar majmui tahlilga tortilgan. Xususan, mualliflar jamoasi tomonidan nashr ettirilgan Arno'ld Uytikning XX asr Evropa arxitekturasini. Funktsionalizm erasi"[2], Le Korbyuzening "XX asr arxitekturasini"[4], T.Kadirov va boshqa mualliflarning "O'zbekistonning sovet davri arxitekturasini tarixi"[5], Q.Ibrohimovning "O'zbekistonda sovet davridagi madaniy va ma'muriy binolar arxitekturasini"[3], Sh.Rahmatullaevning "Toshkentning me'moriy merosi"[7], A.Kuleshevning "O'rta Osiyo bo'ylab. O'zbekistonning turistik markazlari"[6], nomli monografiyalari, "Toshkent"[8] va "O'zbekiston" nomli fotoal'bomlar[9], O'zbekiston Milliy universitetining 100

yillik yubileyi materiallari[11], shuningdek, bir qator davriy matbuot materiallari[12] va internet saytlarida e'lon qilingan mavzuga doir ilmiy maqolalar[13-17], asosli rasmiy ma'lumotlar hamda mavzuga tegishli arxiv hujjatlari qiyosiy o'rganilgan. Ularda O'zbekiston Milliy universiteti (avvalgi TXU (THY), O'ODU (CAFY) va ToshDU (TamFY)) tarixi, universitet kampusi binolarining qurilishiga doir ma'lumotlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarixi, universitet shaharchasi ya'ni kampusining bunyod etilish tarixi, uning O'rta Osiyo mintaqasining etakchi ta'lim-tarbiya, ilm-fan va madaniy-ma'rifiy markazga aylanishiga doir masalalar aks etgan bir qator tarixiy materiallar xolis ilmiy, tarixiy-qiyosiy va xronologik uslubda tahlil etilib, mavzuga doir ilmiy xulosalar berilgan.

Tahlil va natijalar. Universitet tarixiga nazar. Hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 1918-yil 12-mayda tashkil topgan. Universitet tashkil etilgan dastlabki vaqtda avval qisqa muddatli kurslar, shu yilning kuzidan boshlab uzoq muddatli o'quv dasturlari bo'yicha darslar boshlangan. Universitetda ochilgan dastlabki 5 ta fakultetlar sirasiga tabiiy-matematika, qishloq xo'jaligi, texnika fanlari, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va adabiy-falsafiy fanlar fakultetlari (keyinchalik tarix-filologiya fakultetiga aylantirilgan) kiradi. Bundan tashqari universitetning dastlabki tarkibiy qismlari sirasida Turkiston xalq konservatoriyasi, Turkiston xalq muzeyi, Turkiston xalq bibliotekasi ham

mavjud bo'lgan. Ammo biroz vaqtdan keyin ular Turkiston Xalq komissariyatiga bo'ysundirilgan. 1928-yildan universitet fakultetlari asosida mustaqil tarmoq institutlari, jumladan, O'rta Osiyo paxtachilik instituti, O'rta Osiyo paxtachilik va irrigatsiya politexnika instituti, O'rta Osiyo tibbiyot instituti, O'rta Osiyo geologiya qidiruv instituti, O'rta Osiyo industrial instituti, O'rta Osiyo ipakchilik instituti, O'rta Osiyo moliya-iqtisod instituti va bir qator ilmiy tekshirish muassasalari tarkib topgan.

O'zbekiston milliy universiteti bazasida, shuningdek, Abay nomidagi Qozog'iston Milliy pedagogika universiteti (1925), Tojikiston oliy pedagogika instituti (1932), Tojikiston qishloq xo'jaligi instituti (1931) Tojikiston agronomiya pedagoglari instituti, Turkmaniston zooveterinariya instituti tashkil topgan.

1931-yildan universitetda biologiya, texnika, fizika-matematika, 1935-yildan tarix, 1942-yildan filologiya, 1944-yildan sharqshunoslik, 1945-yildan geografiya va geologiya-tuproqshunoslik fakultetlari alohida faoliyat yuritib boshlagan. Universitetda 1943-yil aprelda aspirantura kengaytirilib, doktorantura ochilgan. Shu yili universitet olimlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini tashkil topishida katta hissa qo'shganlar. 1961–1969-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti Markaziy Osiyo oliy ta'lim muassasalari o'rtasida zamonaviy ta'lim tizimida birinchi o'rinni egallagan va Sovet Ittifoqining eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biriga aylangan.

1991-yilda universitetning sharqshunoslik va yuridik fakultetlari negizida Toshkent sharqshunoslik instituti va Toshkent yuridik instituti tashkil etilgan. Hozirda universitetda 15 fakultet, fakultet maqomidagi tillar markazi, tayyorlov bo'limi, 102 kafedra, amaliy fizika ilmiy tekshirish instituti, Oliy pedagogika instituti, amaliy ekologiya va tabiatdan unumli foydalanish ilmiy tekshirish markazi, botanika bog'i, 16 ilmiy laboratoriya, milliy qadriyatlar markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy bo'lim, marketing, ichki nazorat va monitoring, reja-moliya, hisob-kitob, kadrlar bo'limi, magistratura bo'limi, bosh muhandis xizmati va chet ellar bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim institutlari faoliyat olib bormoqda. Universitetda 3 mln.dan ortiq asarga ega 14 ta kutubxona (ulardan 13 tasi fakultetlar qoshida) faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, universitetning nodir qo'lyozmalar fondi saqlanayotgan asosiy kutubxonasida toshbosma va qo'lyozma asarlar majmui ham mavjud [13]. Universitetda "Milliy universitet" (avvalgi "Xalq universiteti") gazetasi 1918 yildan va "O'zbekiston milliy universiteti xabarlarlari" jurnali esa 1997 yildan boshlab chop etila boshlagan. Shuningdek, universitet o'z bosmaxonasiga ega [10]. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ushbu yirik ilmiy markaz yillar davomida samarali faoliyat yuritishi uchun tabiiyki, o'zining maxsus ixtisoslashgan binolari, moddiy-texnik bazasi joylashgan kampusiga ham egadir.

Universitet kampusining shakllanish tarixi. 1918-yil 9-mart kuni Turkiston o'lkasining XKK milliy universitetini xalq ta'limi komissarligiga bo'ysunish bilan tashkil etishga qaror qildi. Universitetga dastlab harbiy maktab binosi va N.K.Romanov saroyi berildi. Tashkiliy xarajatlar uchun 2 million rubl ajratildi. Ushbu qaror 1918-yil 16-martdagi Turkiston Davlat qo'mitasi buyrug'i bilan e'lon qilindi. 1918–1920 yillarda – Turkiston xalq universiteti darslari avvaliga harbiy maktab binosi, N.K.Romanov saroyi va shaharning turli binolarida, vaqtinchalik joylarda o'tkazilgan. 1920-yillar oxiri–1930-yillarda universitet uchun maxsus ixtisoslashgan binolarga ega kampus qurish rejalari ishlab chiqildi. Bu davrda bosh binoning ilk loyihasi tayyorlangan. Bosh bino sovet davri me'morchiligida muhim o'rin tutgan stalincha ampir va modernizm uslublari asosida qurilishi rejalashtirilgan.

Universitetning bosh binosi kabi boshqa aksariyat inshootlari: fakultetlar binolari, jismoniy tarbiya zali,

madaniyat saroyi va boshqalar ham sovet arxitekturasida an'analari asosida, xususan, stalincha ampir va modernizm uslublari uyg'unligida qurilgan. Shu o'rinda, ilmiy adabiyotlarda sovet davri arxitekturasining mashhur uslublari biri bo'lgan stalincha ampir nafakat me'moriy uslub, balki ushbu davrning siyosiy kuchini moddiy madaniyat orqali targ'ib etishga qaratilgan siyosatini ham ko'rsatib turishiga alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlab o'tiladi[12]. Bu me'moriy uslub sovet arxitekturasida XX asrning 30-yillarda paydo bo'lgan va shu asrning 50-yillarida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan. Stalincha ampir uslubining bir qator bosqichlari mavjud. Ya'ni ilk ampir usdubi shu asrning 30-yillarni, o'rta ampir davri 40-yillar va rivojlangan ampir davri esa 50-yillar bilan chegaralangan bo'lib, ular bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Stalincha ampirning ilk davri rus arxitekturasining neoklassik uslubidagi ko'p qavatli uylarning mahalliy xalqlar me'morchiligi an'analarning ganchkori bezaklaridan keng foydalanilgan holatlari bilan o'ziga xosdir[12,14,15]. Sovet davrining mazkur davr inshootlari mahobatli ko'rinishi bilan ajralib turadi. Toshkentning O'rdadagi "Mutaxassislar uyi", A.Navoiy ko'chasidagi Toshkent Davlat universiteti "Tarix" fakulteti binosi, "Vatan" kinoteatri binosi va uni o'rab turgan devorlari tashqi muqarnas ganchli bezaklari fikrimizga dalil bo'ladi[3].

Ushbu uslubning o'rta bosqichi esa neoklassika usubi va O'zbekiston milliy me'morchiligining ustun, panjara, peshtoq va ravoq kabi me'moriy bezaklari bilan boyitilgan holda qurilgani bilan o'ziga xosdir. Bunga misol tariqasida "To'qimachilar madaniyat saroyi", Alisher Navoiy nomidagi "Opera va balet Davlat akademik teatri" binosi, "Toshkent kuranti" va boshqa inshootlarni khsratish mumkin[6].

Stalincha ampir uslubining sho'nggi bosqichi XX asrning 50-yillarini o'z ichiga olgan bo'lib, bunda modernizmga yaqinlashish, ortiqcha hashamdorlikdan chekinish holatlari, sodda me'moriy bezaklar, xususan, ganchli bezaklardan kechish holatlari kuzatiladi. Bu davr inshootlari sirasiga "Toshkent Davlat universiteti" kampusi binolari, xususan, bosh bino, "Ichki ishlar vazirligi poliklinikasi" (keyinchalik Milliy xavfsizlik xizmati binosi), "Toshkent" mehmonxonasi va boshqalar shu kabi binolar kiradi[5. 69-70]. Bu uslubning oz'iga xosligi mumtoz va zamonaviy me'moriy an'analarning uyg'unligida aks etganidir. Bunday uslub qo'llanilgan binolar shunchaki chiroyli ko'rinishi emas balki hukmron siyosat kuch-qudratini ko'rsatib turishi zarur bo'lgan. Uslubning asosi akademik neoklassitsizmdan farqi aniq kompozitsiya, mutanosiblik va muhtasham ko'rinish bilan ifodalangan.

O'zbekiston Milliy universiteti kampusi binolarining qurilishida XX asr arxitekturasida keng qo'llanilgan modernizm uslubidan ham foydalanilganini ko'rish mumkin. Mutaxassislarning ta'kidlab o'tishicha, modernizm uslubi XX asr arxitekturasining murakkab oqimi bo'lib, zamonaviy me'morchilikda o'tmish uslublari bilan voz kechish, funksionallik va zamonaviy yangi shakllar, materiallar va konstruksiyalarni qo'llanilgani bilan ajralib turadi. Le Korbyuze tomonidan shakllangan modernizmdan asosiy tamoyillari erkin reja, lentasimon derazalar, tekis tomlar, erkin fasad va "tayanch ustunlar"ni o'z ichiga oladi. Bu harakat konstruktivizm, funksionalizm, ratsionalizm, xalqaro uslub va brutalizm kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi. Mazkur uslubning asosiy xususiyatlari va tamoyillari sirasiga bezak va naqshlardan voz kechish, modernistik binolar soddaligi, shakllarning sof geometrikligi, dekorativ elementlarning kamligi yoki umuman yo'qligi bilan ajralib turadi[2. 2.].

Ushbu uslubda qurilgan binolarda funksionallik ustunlik qiladi. Ya'ni asosiy e'tibor binolarning bajarayotgan funksiyasiga mosligi va maqsadga muvofiqligiga qaratiladi. Shu sababli bu uslubda qurilgan binolarning aksariyat qismi ma'muriy binolar va yoki ta'lim tizimi muassasalari

binolaridir. Bu turdagi binolarning yana bir xususiyati ularda yangi qurilish materiallari, yangi konstruksiyalar va ochiq maydonli maxsus hududlar yaratish uchun temir-beton, beton va oynadan keng foydalanilganligidir. Ularda shuningdek, innovatsion konstruktiv yechimlardan keng foydalanilgan[6]. Mazkur uslub asoschilaridan biri Le Korbyuze ko'plab modernistik binolar uchun asos bo'lgan "zamonaviy qurilishning beshta modernizatsiyasi"ni shakllantirgan. Bular: beton ustun-tayanchlar (pilotlar): binolar yerdan ustunlarda ko'tarilib, birinchi qavatni bo'shatadi. Yassi tom-terrasalar: Tomlardan sayr qilish va bog' sifatida foydalanish imkonini yaradi. Erkin reja: keraksiz devorlarning yo'qligi ixtisoslashgan texnologiyalarni moslashuvchan tarzda joylashtirish imkonini beradi. Lentasimon derazalar: uzun deraza o'rinlari maksimal tabiiy yorug'likni ta'minlaydi. Erkin fasad: fasad yuk ko'taruvchi konstruksiya hisoblanmagani uchun uni bezashda katta erkinlik beriladi[17. 1-2 rasmlar].

Umuman olganda, Sobiq sovet ittifoqi davlatlari va Yevropada rivojlangan, binolarning funksional tuzilishiga alohida e'tibor qaratilgan modernism uslubida qurilgan binoning asosiy o'ziga xosliklari sifatida funksionalizm (binoning amaliy vazifasi va undan foydalanish qulayligiga e'tibor qaratgani), xalqaro uslub elementlarining ustunligi, minimalizm (me'moriy bezak va hashamdorlikning yo'qligi), geometric unsurlarning ustunligi, brutalizm (keyinchalik uzoq vaqt ishlov berishga muhtoj bo'lmaydigan dag'al beton yuzalar)dan keng foydalanilganligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Milliy universiteti bosh binoning baland kolonnalar asosida yaratilgan marmar ustunli ayvonlari, kirish qismi, yorug' zallari aynan shu uslub elementlari ustunligini ko'rsatadi. Shuningdek, universitet kampusining barcha binolari tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishida ham funksionalizm, ratsionalizm, brutalizm kabi unsurlar yaqqol sezilib turadi. Xususan, uning old qismida barpo etilgan aylana zinalari universitet binolari qurilishida uning nufuzini ifoda etishga alohida e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Ya'ni mazkur dargohning mintaqada ilm-fan rivojidagi o'rni, kamolatga erishih yo'lidagi bosqichma-bosqich olib boriladigan davomiy faoliyat, barqarorlik, buyuklik ramzi sifatida tasvirlangan.

1970-yillarda asosiy bino va aksariyat fakultetlar binolari qurilishi yakunlangan. XX asrning 50–80-yillarida

universitet fakultetlari ham birin-ketin yangi qurilgan ixtisoslashgan binolarga ko'chirilgan. Xususan, 50–60-yillarda fizika-matematika, biologiya va kimyo fakultetlari, 70–80-yillarida esa gumanitar fakultetlar, jumladan tarix, filologiya va jurnalistika fakultetlari uchun yangi zamonaviy bino va laboratoriyalar qurib bitkazilgan. Ular zamonaviy uslubdagi binolari, funksional tuzilishi, qulayligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu binolarda katta va kichik o'quv xonalaridan tashqari laboratoriyalar, kutubxonalar, muzey hamda til o'rganish uchun maxsus jihozlangan xonalar ham mavjud.

Umuman olganda, universitet kampusini tashkil etgan binolarning aksariyat qismi, xususan, yashil zonalar, osmono'par daraxtlar bilan o'ralgan bosh bino, universitetning barcha fakultetlari joylashgan inshootlar, talabalar turar joylari, madaniyat saroyi, jismoniy tarbiya zallari, O'zbekiston arxitekturasining sovet davri namunalarining o'ziga xos majmuasi sifatida qadrlanadi. Mustaqillik yillarida universitet kampusi binolari bir necha marotaba rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, ushbu davrda kampus bir qator yangi binolar, zamonaviy ilmiy markazlar bilan boyitildi. Kampusning umumiy tuzilishida ilg'or arxitektura yo'nalishlari, shu jumladan, zamonaviy shisha va beton konstruksiyalar qo'llanildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, universitet kampusi nafaqat ta'lim-tarbiya markazi, balki O'zbekiston ziyolilari shakllanishida muhim o'rin tutgan ilm-fan maskani sifatida muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Milliy universiteti kampusining shakllanishi O'zbekistonning madaniy va ilmiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u milliy madaniy meros sifatida ham alohida qiymatga ega. Xususan, hozirda universitet kampusi mamlakatda oliy ta'lim tizimi kampuslarini yaratishda namuna sifatida xizmat qiladi. U XX-asr memoriy majmuasi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ya'ni, unga sovet davrida yaratilgan O'zbekiston arxitekturasini tarixida o'ziga xos burulish yasagan me'moriy yo'nalishning yorqin namunasi sifatida ham qarash mumkin.



1-rasm. Bosh binosi 1970-yillarda



2-rasm. Universitet fakultetlari binolari 1970-yillarda

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаев Х. Ўзбекистон архитектураси тарихи. – Тошкент: Фан, 1987.
2. Арнольд У. Европейская архитектура XX века. Т. 1-2: Эра функционализма (1924–1933). Пер. с англ. – Москва: Госстройиздат, 1964.
3. Иброхимов Қ. Ўзбекистонда совет давридаги маданият ва маъмурий бинолар архитектураси. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
4. Кулешов А.А. По Средней Азии. Туристические центры Узбекистана. Путеводитель. – Югославия: Планета, 1982.
5. Кадилов Т.Ф. и др. Архитектура советского Узбекистана. – Москва: Госстройиздат, 1972.
6. Ле Корбюзье. Архитектура XX века / Под редакцией К. Т. Топуридзе. – Москва: Прогресс, 1970.
7. Рахматуллаев Ш. Тошкент меъморчилик мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
8. Фотоальбом «Ташкент» / Авторы Кадырова Т.С., Булатов М.С. – Ленинград: Аврора, 1977.
9. Фотоальбом «Узбекистан». / Авторы фотографий: О.Абидов и др. – Ташкент: Узбекистан, 1982.
10. Фремpton К. Современная архитектура. Критический взгляд на историю развития. – Москва: Стройиздат, 1990.
11. Ўзбекистон Миллий университети. 100 йиллик юбилей тўплами. – Тошкент: Университет нашриёти, 2018.
12. Журнал Городское хозяйство Москвы // – Москва, 1973, №1.
13. <https://www.nuu.uz> – Ўзбекистон Миллий университети расмий сайти
14. <https://mytashkent.uz> – Ташкент в энциклопедии
15. <https://pastvu.com> – Фотоальбом Государственного университета Узбекистана.
16. <https://www.gazeta.uz/ru> – Сталиновский ампи́р в Ташкенте.
17. <https://ru.wikipedia.org> – Архитектурный модернизм.